

8. Гутман С.С. Особенности формирования организационной структуры проектно-ориентированной организации // Экономика и современный менеджмент: теория и практика: сб. ст. по матер. XL междунар. науч.-практ. конф. № 8(40). - Новосибирск: СиБАК, 2014. - С. 134-140.
9. Даренков М.Ю. Формирование проектно-ориентированных организаций в условиях России. Научный журнал. Вестник Поволжской академии государственной службы им. П.А. Столыпина». Саратов. - 2009. - № 1(18). - С. 165-170.
10. Швиндина А.А. Особенности управления проектно-ориентированной организацией // Управление проектами и развитие производства. Луганск. - 2011. - № 3 (39). - С. 10-17.
11. Кубарева Е.Ю. Организационно-методические основы бюджетирования на проектно-ориентированном предприятии с матричной структурой управления: Дис ... канд. экон. наук: 08.00.05. - Москва, 2010. - 227 с.
12. Лапушкин И.И. Разработка механизма управления структурой процессов в проектной организации: Дис ... канд. экон. наук: 08.00.05. - Москва, 2014. – 152 с.
13. Никонов В.О. Экономико-математические методы управления портфелем проектов организации: Дис. канд. экон. наук: 08.00.13 Екатеринбург, 2006 - 130 с.
14. Петрова И.В. Модели и алгоритмы снижения степени экономических рисков в задачах управления проектами организации: Дис. ... канд. тех. наук: 05.13.10: Воронеж, 2009.- 160 с.
15. Бараненко С.П. Управление проектами: Учебно-методический комплекс / С.П. Бараненко. - М.: АП Наука и образование, 2014. - 244 с.
16. Литвиненко Э. Обучение руководителей образования основам проектного управления. - М.: Palmarium Academic Publishing, 2014. - 60 с.
17. Попов Ю.И. Управление проектами: Учебное пособие / Ю.И. Попов, О.В. Яковенко. - М.: Инфра-М, 2016. - 352 с.
18. Рыжкова И.В. Отношение ППС к международной проектной деятельности // Высшее образование в России. - 2009. - №4. - С. 43-47.
19. Суханов А.Л. Управление научными проектами в ВУЗе / Труды 3-й международной научной конференции «Современные сложные системы управления». Воронеж: ВГАСУ, 2003. Т. 1. С. 199 - 201.

## Gulchehra CHO'LLIYEVA

Buxoro davlat universiteti  
boshlang'ich ta'lif metodikasi  
kafedrasi o'qituvchisi

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH YO'LLARI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

(o'qish darslari misolida)

*Maqolada o'qitishning boshlang'ich ta'lif bosqichida o'quvchilarga o'qish darslarini an'anadagidan ko'ra samaraliroq o'tish va buning uchun integrativ yondashuvdan foydalanish muhimligi tahviliga tortilgan. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarini o'zaro bog'lab o'qitish ta'lif sifatini oshirishga, o'quvchilarda assotsiativ dunyoqarashni kengaytirishga va o'quvchi tomonidan dars mavzularining oson hamda tez o'zlashtirilishiga, natijada ona tili ta'limi maqsadining ro'yobi ta'minlanishiga yordam berishi masalasiga e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** integratsiya, o'qish fani, ona tili ta'limi maqsadi, ona tili ta'limi usuli, assotsiativ dunyoqarash

В статье анализируется важность обучения учеников более эффективными методами обучения с использованием интегративного (комплексного) подхода, чем на начальных этапах обучения. Сочетание родного языка и уроков чтения в начальной школе улучшает качество образования, расширяет ассоциативные взгляды учащихся, облегчает и ускоряет освоение уроков учениками, в результате чего родной язык делает акцент на достижению образовательных целей.

**Ключевые слова:** интеграция, предмет чтение, цель обучения на родном языке, методика преподавания родного языка, ассоциативное мировоззрение.

*In article was written about the combination of the native language and reading lessons in elementary school improves the quality of education, broadens the associative views of students and facilitates and*

*accelerates the learning of lessons by students, as a result of which the mother tongue focuses on contributing to the achievement of science goals.*

**Key words:** *integration subject of reading, purpose of teaching in the mother tongue, methods of teaching the mother tongue, associative worldview*

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darslarini o‘zaro bog‘lab o‘qitish ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarda assotsiativ dunyoqarashni kengaytirishga va o‘quvchi tomonidan dars mavzularining oson hamda tez o‘zlashtirilishiga, natijada ona tili ta’limi maqsadining ro‘yobi ta’milanishiga yordam beradi. Bilamizki, inson hayotida assotsiativ dunyoqarash juda katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, maktab boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolaning ijobjiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish bevosita assotsiativ dunyoqarashga bog‘liq bo‘ladi. Agar maktabgacha ta’lim sharoitida bola tafakkurida bir narsani ikkinchisiga bog‘lash, ikki jism, voqe-a-hodisa, tushuncha yoki jarayon o‘rtasidagi umumiy o‘xhashlik, aloqadorlik va, albatta, farqli jihatlarni topish ko‘nikmasi hosil qilingan bo‘lsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bunday bola bilan ishslashda jiddiy muammolarga duch kelavermaydi.

Maktab va unda o‘qitiladigan o‘quv predmetlari bolaning murg‘ak ongida hayot haqida mavjud jo‘ngina tasavvurlar sirasiga yangidan yangi ma’lumot, tasavvur, tushunchalarini ketma-ket, izchillikda qo‘sib boraveradiki, o‘quvchi tafakkurida ko‘rgan, o‘qigan, eshitganlarini qayta ishslash, qayta ishslash uchun esa ularni tafakkurida borlariga bog‘lab saralash, eng keraklisini ajratib olish va esda saqlashga harakat qilish jarayoni o‘quvchi miyasida doimiy harakatda bo‘lishi zarur. Zero, mazkur bog‘lanishlar tufayli ongda paydo bo‘lgan muayyan tasavvurlar o‘xhashlik, yondoshlik va qarama-qarshilik belgilari ko‘ra, shunga bog‘liq bo‘lgan boshqa tasavvurlarni hosil qiladi.

Psixologlarning ta’kidicha, bir ruhiy jarayonning namoyon bo‘lishi assotsiatsiya tufayli ikkinchi (avvalgisi bilan bog‘liq bo‘lgan) ruhiy jarayonni vujudga keltiradi. Asosan, uch xil assotsiatsiya mavjud: qarama-qarshilik assotsiatsiyasi – avval idrok qilingan qarama-qarshi sifatlarga ega bo‘lgan narsa va hodisalarining birortasini takror idrok qilish yoki tasavvur qilish munosabati bilan boshqalari obrazlarining ixtiyorsiz ravishda ongda gavdalanishidan iborat qonuniyat [1]. Masalan, bola barcha ongli insonlar qatori “osmon” so‘zini eshitganda yoki o‘qiganda, beixtiyor “yer” so‘zini, “farosatli” so‘zini idrok etganda “kaltafahm” so‘zini yoki “shirin” deganda “achchiq” so‘zini eslashi zarur. Yondoshlik assotsiatsiyasi asosida esa muayyan mavjudlik, tushuncha yoki fikr tafakkurning qaysidir “burchagida turgan” ikkinchi, ba’zan uchinchi, to‘rtinch...tushuncha yoxud fikrni yetaklab kelishi muhim. Jumladan, o‘quvchining “maktab” deganda “o‘qituvchi”, “o‘quvchi”, “sinf xonasi”, “parta”... kabilarni eslashi.

O‘xhashlik assotsiatsiyasi, tabiiyki, muayyan predmet, voqe-a-hodisa, jarayon, tushuncha kabilarning umumiy belgilari asosida bittasiga duch kelish tafakkurda boshqalarining ham obrazlari ixtiyor yoki ixtiyorsiz ravishda tiklanishini ta’minalash jarayonlaridir. Bunda bola, masalan, kompyuterni ko‘rganda noutbookni yoki netbookni eslashi shular jumlasidandir.

Barcha zamonlarda ham ta’lim berish ishi bilan mashg‘ul haqiqiy ustozlar, muallim-u muallimalar ta’lim oluvchida, avvalo, assotsiativlikning mana shu uch turini shakllantirish va uni avaylab rivojlantirib borish ishi bilan shug‘ullanishganki, bu yer yuzida inson zoti yashar ekan, juda zarurlik mohiyatini hech qachon yo‘qtmaydi. Agar “bola yoshdan”ligini inobatga olsak, bu boradagi eng katta mas’uliyat boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining zimmasiga tushadi. Zero, ijtimoiy hayotning barcha qirralari kabi ta’lim jarayonining sifat va samaradorligi ham assotsiatsiyaga asoslangan bilim, ko‘nikma va malakalarga bog‘liq.

1-4-sinf o‘qish darslarining maqsadi o‘quvchida og‘zaki nutqni takomillashtirish, o‘stirish, buning uchun, avvalo, uning tafakkurini boyitish, so‘z boyligini oshirish, fikrlay olish qobiliyatini shakllantirib, mustaqil fikrini erkin bayon qilishga o‘rgatish hisoblanadi. Shu vazifalarni amalga oshirish esa har bir boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining bir soatlik o‘quv mashg‘uloti oldida turgan ijtimoiy buyurtma – dars maqsadini ro‘yobga chiqarishimi ta’minalaydi. Zero, o‘qituvchi ta’lim mazmuni (dars mavzulari) asosida malaka talablari, ya’ni DTSda belgilangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qo‘ylgan talablarni bajarishi va o‘quvchilarda zaruriy bilim, ko‘nikma, malaka hosil qilishi lozim. Bu esa o‘qituvchidan ta’limning zamonaviy va ayni paytda samarali usul va vositalarini bilishni, bilganlardan o‘rinli foydalanishni va bu borada ta’limga integrativ yondashish orqali o‘quvchi kompetentligini oshirib borishni talab etadi.

Boshlang‘ich ta’limda “Ona tili”, “O‘qish” o‘quv predmetlarini tabiat, tasviriy san’at, matematika va odobnoma darslari, to‘g‘riroq‘i, ta’limning boshlang‘ich bosqichida o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlari bilan bog‘lab o‘qitish, ya’ni fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari nihoyatda keng va rang-barangdir. Fanlararo aloqadorlik, avvalo, ta’limda uzviylikni ta’minalash asosidir. Uzviylik bir sinf yoki bir o‘quv predmeti doirasida chegaralanib qolishi ham mumkin emas. Zero, ta’limni globallashtirish, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayoniga kompleks yondashishni amalga oshirish shu kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini inobatga olsak, inson hayoti o‘tmish, hozir va kelajak bilan uzviy bog‘lanmasa, o‘z mazmunini

yo‘qotib, fayzsiz va zavqsiz bir hodisaga aylanib qolganidek, maktabda o‘qitiladigan har bir darsni boshqa barcha o‘quv predmetlari, qolaversa, ta’limming barcha tur va bosqichlarida o‘qitiladigan dars soatlari bilan mushtarak holda bog‘lamas ekanmiz, ta’lim uchun sarflagan vaqtimiz, mehnatimiz zoye ketaveradi. Hozirgi kun ta’limi o‘quvchilarini borliqni yaxlit bir tizim sifatida qabul qilishga o‘rgatishi, hodisa va voqealar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunish ko‘nikmasini hosil qilishi, fanlararo aloqadorlik, har bir o‘quv predmetiga taalluqli umumiylilik va shu umumiylarlarning xususiyliklarda yuzaga chiqishi, mohiyat, imkoniyat hamda sababning hodisavyiylik, voqelik, oqibat holatlaridagi o‘zaro munosabati va ularning bir-biriga ta’sirini anglashga yordam berishi zarur.

Aytilgan vazifalarni bajarishda oddiydan murakkabga yo‘nalmoq samaraliroq. Chunonchi, 2-sinf “O‘qish” kitobida berilgan “Halollik” rivoyati[2]ni tasviriy san’at, tabiat fanlari bilan bog‘lab o‘tish mumkin. Avvalo o‘quvchilarga asar matnini tanishtirishdan oldingi tayyorgarlik bosqichi amalga oshiriladi. Bunda rivoyat mavzusiga mos tarzda bolalarni ekskursiyaga olib chiqib, tabiatning bahor faslida o‘zgarishi, yerlarni ekin ekishga tayyorlash, yer haydash va unda ishlatalidigan anjomlar haqida gapirib, jarayon bilan tanishtirilsa, rivoyatdagi voqeа sodir bo‘lgan muhitni bola ko‘z o‘ngiga keltirish hamda asarni tushunish jarayonini tezlashtirishi mumkin.

Shundan keyin ikkinchi bosqichda o‘quvchilar asar mati bilan tanishadilar. Endigi jarayon o‘quvchilarning “Odobnoma” darsida anglaganlari bilan uyg‘unlashadi: inson zotiga xos, barchaga xush keluvchi umuminsoniy fazilatlar va uning aksi bo‘lgan kishilarga ziyon yetkazuvchi, kishilar orasida egasini ham yomon otliqqa chiqarib, oxir-oqibat uni baxtsizlikka giriftor etuvchi illatlar haqida gapirtirib, o‘quvchilarni asar g‘oyasini chuqurroq tushunib yetishiga yordam berish va yana bolaning mustaqil fikrini erkin bayon qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Shu o‘rinda o‘quvchilarni kichik guruhlarda ishlatish va topshiriq bajartirish o‘rinli.

**Topshiriq:** Berilganlar asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

BU YAXSH FAZILAT	BU YOMON ILLAT
saxiylik, ...	adovat, ...

*Saxiylik, adovat, ko‘rolmaslik, tavoze, shirinsuxanlik, yurtparvarlik, elsevarlik, aldamchilik, yomonlash, ichkilikbozlik, kashandalik, chaqimchilik, ko‘rolmaslik, mehnatsevarlik, ko‘zbo‘yamachilik, bag‘rikenglik, kitobxonlik...*

Tabiiyki, berilgan so‘zlarning barchasi ham o‘quvchiga tanish emas. Bu o‘sha so‘zlar (masalan, *tavoze, adovat, bag‘rikenglik* kabilar) ma’nosi, ya’ni lug‘at ustida ishslash imkoniyatini tug‘diradi.

Rivoyat matnini tahlil qilishdagi uchinchi bosqichda mavzu mohiyati umumlashtirilishi va xulosalanishi lozim. Bu bosqichni tasviriy san’at bilan aloqadorlikda olib borish dars samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi, ularga rivoyat matni bo‘lib beriladi va jarayon “Tanlab o‘qitish” usuli asosida tashkil etiladi. Guruhlar rivoyatdan ajratib berilgan o‘rin bilan chuqurroq tanishishlari va parchadagi voqeа yoki g‘oyani tushunganlari asosida rasmda aks ettirib berishlari so‘raladi. O‘quvchilarga rangli qalamlar yoki turli markerlardan foydalanishga ruxsat beriladi.

Dars oxirida rivoyatda berilgan bobodehqon topib olgan tilla to‘ldirilgan xumchani yasab kelish uyga vazifa sifatida berilsa, mavzuni mehnat (texnologiya) darslari bilan ham bog‘lash, fanga qiziqishini oshirish hamda o‘quvchilarning qo‘l mehati orqali tasavvurlarini boyitishga erishish mumkin.

3-sinf darsligidagi “O‘jar buzoqcha” she’rini o‘tishda, avval, o‘quvchilarga “Tabiat” o‘quv predmetidan o‘zlashtirganlari hamda o‘zlarining turmush tarzimizdan orttirgan tajribalari asosida “Men qaysi uy hayvonlarini bilaman” mavzusida suhbat o‘tkaziladi. O‘quvchilardan uy hayvonlari haqida nimalarni bilishi, sigir, ho‘kiz va buzoqcha so‘zlarining ma’no farqi haqida so‘raladi hamda atrofimizdagi olamga e’tiborli bo‘lish, tabiatni asrash kabi tarbiyaviy tushunchalar ham singdirib boriladi. O‘qish darsining “Tabiat” o‘quv predmeti bilan uzviylikda olib borish o‘quvchilarda nazmiy asarga qiziqishlarini oshiradi hamda she’rni oson va tez yodlatishlariga turtki beradi.

O‘qish darslarida badiiy asarni o‘qitish, uning matnini tahlil qilishda o‘quv jarayoni uchun mo‘ljallangan maxsus texnik vositalar orqali mayin milliy kuy qo‘yib, ifodali o‘qitsa yoki hikoya qilib berilsa, o‘quvchilarning diqqatini bir joyga jamlash, ularni faollashtirishni yengillashtiradi. Darsning musiqa bilan uzviylashtirilishi o‘quvchilarni ma’nana oziqlanishga, insoniylikni, hayotni sevishga o‘rgatadi.

Zero, o‘qituvchi birgina o‘qish darsini boshqa o‘quv predmetlari bilan integratsiyalash orqali ta’lim oluvchilarda assotsiativ dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishiga zamin hozirlaydi.

Boshlang‘ich sinflarda, fikrimizcha, o‘qish va ona tili darslarini integratsiyalashda quyidagilarga e’tibor berish muhim:

- har bir darsda nazariy ma'lumotlarni berishga qaratilgan istalgan usul, albatta, ta'limiy maqsad ro'yobini ta'minlashga xizmat qila olishi kerak;
- fanlararo aloqadorlik asosida tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bevosita bog'lanishi shart;
- integrativ ta'lim jarayonida sinf o'quvchilari faolligini oshirish uchun pedagogik hamkorlikka tayanish juda muhim;
- integrativ ta'lim jarayonida darsning ta'limiy maqsadi tarbiyaviy madsadni to'ldirib borishi yoki, aksincha, tarbiyaviy maqsad ta'limi madsad bilan yaxltashib borishi zarur;
- integrativ ta'lim jarayoni bolaning tabiat, inson tafakkuri, jamiyat taraqqiyoti uzviy aloqadorlikda ekanligini anglashiga poydevor bo'lishi kerak. Zero, insonning ona tilisi uning dunyoni bilishi uchun asosiy vositadir.

Ta'kidlash zarurki, integrativ ta'lim fan o'qituvchisidan alohida tayyorgarlikni talab etadi.

Vaholanki, ulug' didakt olim Yan Amos Komenskiy aytganidek: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". I.V.Pestalossi esa o'zining didaktik xarakterdagi maqolasida o'quv darsliklaridagi bog'liqlik masalasiga keng to'xtalar ekan: "Bir-biri bilan bog'liq fanlarni ko'z oldingga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla", - deydi. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavflilagini ham ta'kidlaydi.

Boshlang'ich sinflar ta'limi jarayonida o'quv predmetlarini integratsiyalash nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamон talablari nuqtayi nazardan ham juda muhim bo'lib, yangi ijtimoiy maqsadlar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Vaholanki, hozirgi zamон ta'lim-tarbiya tizimi zimmasida eng katta mas'uliyat turibdi: ta'lim oluvchilarimiz intellektual salohiyatga ega bo'lsin va ular kelajakda yurt nufuzini dunyo standartlari darajasiga ko'tara oladigan yuqori malakali kadrlar bo'lib yetishsin.

Maktab umumta'lim fanlarini tarqoq holda o'rgatish, ularni bir-biriga uzviy bog'lab o'tmaslik o'quvchilar bilimini mukammal bo'lishi va borliqni bir butun sistema (tizim) ekanligini tushunib yetishiga to'sqinlik qiladi, o'quvchi uchun fan mavzularini anglashda qiyinchilik paydo qiladi. Xullas, bu muammolarning barchasi uchun yechim kaliti o'qituvchining mahorati va uning integrativ ta'limni to'g'ri yo'liga qo'ya olishiga bog'liq.

#### Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
  2. Asqarova G., Egamberdiyeva G. Boshlang'ich ta'limda integratsiya. – Namangan, 2007.
  3. Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi boshlang'ich ta'lim, ona tili, o'qish, matematika, tibbiyot (1-4-sinf). – T.: Sharq, 2017.
  4. Mavlona R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – T.: Ilm ziyo, 2009.
  5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.
  6. Sayidahmedov N.S. Oliy pedagogik ta'limda integral texnologiyalar. – T.: Fan, 2003.
  7. Yo'ldoshev J. Xorijda ta'lim. Integratsiyalashgan va maxsus kurslar. – T.: Sharq, 1995.
  8. G'afforova T., Nurullayeva Sh. O'qish kitobi. 3-sinf. – T.: Sharq, 2016.– 26-37-bet.
- ziyonet.uz  
aim.uz

**Моҳигул КАРИМОВА**

Самарқанд шаҳар 27-мактабгача  
таълим ташкилоти мудираси  
мустакил тадқиқотчи

## МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ТУБ ЎЗГАРИШЛАР МАҚСАДИ ВА МОҲИЯТИ

Уибу мақолада мактабгача таълим муассасининг вазифалари, мақсади ва тизимдаги ислоҳотлар, туб ўзгаришилар, шунингдек, "инсон капитали"нинг шаклланиши ва ривожланиши ҳақидаги тушунчаларга алоҳида эътибор берилган.

**Калим сўзлар:** шахс, таълим-тарбия, маданият, саломатлик, ҳис-туйгу, атроф-муҳит.

В данной статье рассматриваются концепции дошкольного образования, цели и системные реформы, фундаментальные изменения, а также концепция «человеческого капитала».